

ALISHER NAVOIY ASARLARINING JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI

Dots. R.U.Ruzmanova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston,

E-mail: roxilaruzmanova694@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiyning dunyo adabiyotshunosligida o'rganilishi, asarlari yuzasidan yozigan ilmiy izlanishlar yoritiladi. Xususan, shoir ijodining usmonli turk adabiyotiga ta'siri, Turkiyaga yuborgan g'azallari va ularga yozilgan naziralar hamda bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar keltiriladi. Alisher Navoiy ijodining bugungi kunda ko'plab millatlar tadqiqotchilari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilayotgani, asarlari o'z davridayoq bir qator hududlarga tarqalgani, qo'lyozmalarining tadqiq etilib, dunyo olimlari e'tiborini tortayotganligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: jahon adabiyoti, adabiy meros, usmonli turk adabiyoti, qo'lyozma, nazira, adabiy ta'sir.

Annotation: In this article, scientific research had done around the world on the work of the great poet and thinker Mir Alisher Navoi and his place in world literature. Particularly, the influence of the poet to the literature of Ottoman Turkish, the ghazals sent to the Turkey, his ghazals sent to Turkey and the poems written about them, as well as the researches carried out on this regard are presented. It will be explained that Alisher Navoi's work is being studied with great interest by researchers of many nations, his works spread to a number of regions in his time, his manuscripts are being researched and attracting the attention of world scientists.

Key words: world literature, literary heritage, Ottoman Turkish literature, manuscript, poems, literary influence.

Аннотация: В статье приведены исследования великого поэта и мыслителя Мир Алишера Навои в области мировой литературы, а также научные исследования по его произведениям. В частности, исследуется влияние творчества поэта на Османскую турецкую литературу, газели и написанные к ним назирьы, отправленные им в Турцию, а также исследования, проведенные по этому поводу. Рассматривается тот факт, что творчество Алишера Навои сегодня с большим интересом изучается учеными многих стран, его произведения уже в свое время распространились по ряду регионов, его рукописи изучаются и привлекают внимание исследователями всего мира.

Ключевые слова: мировая литература, литературное наследие, османско-турецкая литература, рукопись, назирьа, литературное влияние.

Turk dunyosining buyuk mutafakkiri va shoiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining barhayot siymolaridandir. Alisher Navoiy ma'naviy merosini tadqiq etish va bu boy merosdan xalqimiz ma'naviy merosini boyitish har birimizning vazifazimdir. Alisher Navoiy hayoti va ijodin o'z davridayoq zamona olimlari va keng jaoatchilik e'tiborini qozongan. Xususan, Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Makorim ul-ahloq", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Boburning "Boburnoma", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-ahloq" va Abdurahmon Jomiyning "Hiradnomai Iskandariy" va "Bahoriston" kabi asarlari va boshqalar, Navoiy ijodi va adabiy merosi haqida muhim ma'lumotlarni beradi.

Alisher Navoiy shaxsiyati va asarlari haqidagi qarashlar, izoh va sharhlar so‘nggi yillardagi tadqiqotlardan keng o‘rin olmoqda.

Alisher Navoiy asarlari o‘z so‘zi bilan aytganda “Xitoydan Xurosongacha” ozar, turkman, qozoq, qirg‘iz va usmonli turklari tomonidan sevib mutolaa qilingan:

Olibmen tahti farmoning‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez
Ki, qilmishdur nayi qilkim shakarrez¹.

Ulug‘ ustozlardan Vohid Abdullayev, 31-may 1941-yilda buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haqida “Alisher Navoiyning hayoti va Samarqanddagi adabiy faoliyati” mavzusidagi dissertatsiyasini O‘zbekistonda ilk bor himoya qilgan olim bo‘ldi². Alisher Navoiyning Samarqandga kelishi, 1465-1469-yillarda Movarounnahrda qolishi, zamondoshlari, o‘rgangan ilmlari, Fazlulloh Abullays dargohidagi hayoti, ijodi, ilm va madaniyat kishilariga bo‘lgan munosabatlari ushbu tadqiqotda yoritilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tarixchi Xondamirning ma’lumotlariga ko‘ra, XV asr oxirida Hirotga turli o‘lkalardan Alisher Navoiy asarlarini yuborishlari so‘ralgan maktublar kelgan. Shoirning devonlari podshohlarga, sultonlarga, amir va ma’murlarga eng qimmatbaho hadya sifatida taqdim etilardi.

Alisher Navoiy turkiy til asoschisidir va manbalarga ko‘ra “Navoiy tili”, “Navoiy tarzi” sifatida qo‘llanildi³. Anado‘li mumtoz turk adabiyotidagi ta’siri, Turkiyaga yuborgan devonidagi tanlangan 33 g‘azalga turk shoirlarining naziralar bitishi bilan boshlanadi.

Anado‘lida so‘nggi asrlarda ijod qilgan ko‘plab shoirlar Navoiyni hurmat-ehтиrom bilan tilga olishadi. Masalan, usmonli shoirlaridan Dukakinzoda Yahyo bey “Gulshan-i anvor” nomli masnaviysida Alisher Navoiy haqida shunday deydi:

Mîr Nevâyî gül-i bî-hârdur
Hamsesi bir nâfe-i Tatar dur.
Sözleridur aşk odunuñ sarsarı
Her biri bahr-ı gazelüñ gevheri.
Vasf idemem zât-ı hîred-mendini
Ayn-ı acem görmedi mânendini⁴.

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Саккизинчи том. Хамса. Фарҳод ва Ширин. – Тошкент: Фан, 525-бет.

² Абдуллаев В. Алишер Навоийнинг ҳаёти ва Самарқанддаги адабий фаолияти: Филология фанлари номз. ... дисс. – Тошкент, 1941.

³ Çetindağ, Yusuf. Ali Şir Nevai’nin Osmanlı şiirine etkisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2006, S. 12.

⁴ Kayabaşı, Bekir. Taşlıçalı Yahya Bey Gülşen-i Envar, İnönü Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yüksek Lisans Tezi, 1991, S. 74.

Alisher Navoiy ijodi, butun Turk xalqlaridagi kabi, Usmonli turk adabiyotida ham asrlar davomida mashhur bo‘lgan buyuk so‘z san’atkoridir. Budindan Basragacha, imperatorlikning Anado‘li va Rum xalqlarining butun tuproqlarida, Ozarbayjon, Eron, Iroq, Qrim, Volga va Turkman xalqlari orasida va Oq dengizdan Qoshg‘argacha bo‘lgan hududlarda shoir asarlari tarqalgan. Faqat Usmonli hududlaridagina emas, Eronda Safaviylar saroylarida va Hindistonda Boburiylar saroylarida ham asarlari o‘qilgan, she’rlariga naziralar yozilgan.

Turk adabiyoti tarixi mutaxassizlari, Navoiy asarlarining Usmonli turk shoirlariga ta’sirini XV asrning oxiri deya qayd etishadi. O‘rta Osiyo shoirlarining Usmonli she’riyatiga ta’siri XV asrning birinchi yarmida boshlanadi. O‘rta Osiyo shoirlaridan Usmonli imperiyasiga yetib borgan ilk she’rlar, fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiyning masnaviylaridir⁵.

Sulton II. Mahmudning Jomiy she’riyatiga oshno ekanligi ma’lum. Bu davrda yashagan Usmonli shoirlaridan Ahmad Posho, Nizomiy va Jomiy kabi buyuk so‘z san’atkorlari asarlaridan ham xabardor edi. Ammo Alisher Navoiy g‘azallari uning ijodiga katta ta’sir qiladi.

Alisher Navoiy asarlarining g‘oyaviy-badiiy ta’siri, faqat O‘rta Osiyoda emas, balki Ovro‘pada yashagan turkiy xalqlar ijodiga ham ta’sir qiladi. Turk adabiyotshunoslarining fikriga ko‘ra XV asrning so‘nggi choragida boshlangan bu jarayon, Turk adabiyotining lirik va liro-epik taraqqiyoti uchun namuna vazifasini bajaradi.

Alisher Navoiy asarlari, yozilgan yillardan boshlab ham O‘rta Osiyoda hamda Usmonli turk davlatida katta shuhrat qozonadi. G‘azallari o‘zi hayotligidayoq usmonli shoirlarining e’tiborini qozonadi va ularga nazira bog‘lash an’anaga aylanadi. Bu haqdagi ma’lumotlar manbalarda tez-tez tilga olinadi.

Navoiy ijodining usmonli turk adabiyotiga ta’siri masalasi XX asrda yangidan tadqiq qilina boshlandi va avvaliga Nomik Kamol, Gibb, Brovne, keyin esa, Fuad Ko‘prulu, Ali Nihat Tarlan, prof. Mustafa Eson, prof. Jemal Kurnaz, prof. Tahir O‘zgur, Eleazar Birnbaum ve Sigrid Kleinmichel kabi tadqiqotchilar tomonidan qaytadan yozildi.

Alisher Navoiyning mumtoz turk adabiyotida Anado‘li shoirlariga ta’siri quyidagi manbalarda yaqqol namoyon bo‘ladi: 1) Shoir tazkiralari; 2) Nazira majmualari; 3) XV-XVI asr shoirlarining she’rlari.

XVI asr tazkiralari Alisher Navoiyning o‘ziga xos uslubi bir qator shoirlar ijodiga ta’sir qilganligi keltiriladi. Xususan, Hofiz-i Ajam va Muhyining “Navoiy tarziga xos hushoyanda guftori” ekanligi, Shoh-i Sahrqining “Navoiy tarzi”ni yodga solishi, Jamiliyning “Aksar ash’ori Navoiy tarzida” bo‘lganligi, Shuhudiy, Sabaiy,

⁵ Гарбузова В.С. Поэты средневековой Турции. – Ленинград: ЛГУ, 1963, с.122.

Zayiy va Zuhdiyning “Navoiyda mohir”, G‘iyosiy va Ulumiyning “Tarz-i Navoiyda jahl” ko‘rsatganligi qayd etiladi⁶.

Alisher Navoiy adabiy merosi haqida Fuod Ko‘prulu⁷, Ogoh Sirri Levend⁸, Sadettin Nushat Ergun⁹, Alaiddin Go‘vsa¹⁰, Mustafa Eson¹¹, Vohit Türk¹², Yusuf Chetindoğ¹³ kabi olimlarning bir qator ilmiy tadqiqotlari mavjud.

F. Ko‘pruluning “Türk Dili ve Edebiyatı Üzerine İncelemeler” nomli kitobida shoir ijodi haqida alohida “Ali Şîr Nevâyî ve etkileri” sarlavhasi ostida bir bo‘lim bor. Turk adabiyoti va madaniyati uchun muhim ahamiyatga molik buyuk mutafakkir shoir haqida Turkiyada ko‘plab farqli tadqiqotlar amalga oshirilganligi ma‘lum.

Alisher Navoiy devonlari, dostonlari, falsafiy va badiiy asarlari turli tadqiqotchilar tomonidan turk tiliga tarjima qilinib nashr ham qilingan¹⁴.

Shuningdek, so‘nggi yillarda Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori Funda Toprak tomonidan ham “Tasavvufi ve edebi yönleriyle Ali Şîr Nevayi” nomli monografiyaning nashr qilinishi ham yana bir yirik tadqiqotlardan biridir.

İstanbul Bog‘azichi universiteti professori Lale Uluch va Mimar Sinan universiteti professori Tanju Seyhanlar o‘zbek navoiyshunoslaridan A.Erkinov, R.Jabborovlar bilan birgalikda “Alisher Navoiy qo‘lyozmalari dunyo katalogi”ning turkcha qo‘lyozmalari ustida izlanishlar olib borishmoqda.

Shuningdek, alisher Navoiy asarlarining xorijdagi qo‘lyozmalarini tadqiq etish, ularni ilmiy muomalaga olib kirish bilan uzoq yillar davomida shug‘ullanib kelayotgan prof.A.Erkinov tomonidan bir qator ilmiy loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Xorij kutubxona va muzeylarida yurtimiz tarixi, madaniyati va adabiyotiga oid ko‘plab qo‘lyozmalar mavjudligiga guvoh bo‘lgan olim 2018-yildan buyon Alisher Navoiy asarlarining dunyo bo‘ylab tarqab ketgan qo‘lyozmalari fehristini tuzish borasida izlanishlar olib borib, bir qator qo‘lyozma asarlar reyestirini tuzadi. Prof.A.Erkinov mana shunday ma‘lumotlarni aniqlash jarayonida ularni tadqiq etish uchun endilikda Alisher Navoiy qo‘lyozmalari butunjahon fehristini yaratish, dunyo bo‘yicha

⁶ Çetindağ, Yusuf. Ali Şîr Nevai'nin Osmanlı Şiirine etkisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2006, S. 37-38.

⁷ Köprülü, M. F. Ali Şîr Nevâyî Ve Tesirâtı // Türk Dili ve Edebiyatı Hakkında Araştırmalar. – İstanbul, 1934. –257-266 s.

⁸ Levend, A. S. Ali Şîr Nevâyî. Divanlar, II. – Ankara, 1966. – 455 s.

⁹ Sedettin, N. E. Türk Şairleri. Cilt I. – İstanbul, 1936. – 425 s.

¹⁰ Gövsa, I. A. Ali Şîr Nevayi. Meşhur Adamlar. – İstanbul, 1935. – 268 s.

¹¹ İsen, M. Anadolu Türk Edebî Dili Üzerine Nevâî Etkisi // Uluğ Bey Sempozyumu. – Çorum, 30 Mayıs-1 Haziran 1994, S. 294-304.

¹²Türk, V. (2021). Türkiye'de Ali Şîr Nevai Çalışmaları. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*. 52, 403-442.

¹³ Çetindağ, Y. Ali Şîr Nevâyî'nin Osmanlı Şiirine Etkisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 2006. – 277 s.

¹⁴ Kut, G. ‘Ali Şîr Nevâyî, Garâibüs-Sîğar. İnceleme-Karşılaştırmalı Metin. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2003. – 494s.; Ali Şîr N. Ali Şîr Nevâyî'nin Birinci Divanı: Garâibü's-Sîğar. Hazırlayan: Alpay Günay. Basılmamış Doktora Tezi. – İstanbul, 1965.; Ali Şîr N. Bedâiyü'l-Vasat. Hazırlayan: Kaya Türkay. Ankara Üniversitesi. Basılmamış Doktora Tezi.– Ankara, 1988.; Ali Şîr N. Nevâdirü'ş-Şebâb. Hazırlayan: Mehmet Metin Karaörs. İstanbul Üniversitesi. Basılmamış Doktora Tezi.– İstanbul, 1985.; Nalbant B. ‘Ali Şîr Nevâyî. Nevâdirü'n-Nihâye (İnceleme, Metin, Dizin, Notlar): Doktora Tezi. Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2005.; Türkay K. Ali Şîr Nevâyî: Bedâiyü'l-Vasat. İnceleme – Metin – Dizin: Ankara Üniversitesi. Doktora Tezi. – Ankara, 1988.

Navoiyning qancha qo‘lyozmasi mavjudligini bilish zarurati haqidagi fikrlarni bildiradi va “Alisher Navoiy” xalqaro elektron jurnalining 2022-yil 3-sonida nashr qilingan maqolasida xorijdagi Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining bir qismiga oid ma’lumotlarni keltiradi. Maqsadimiz hozirgacha mavjud ma’lumotlarni to‘plash va ular bilan ilmiy jamoatchilikni tanishtirib borish, deydi prof.A.Erkinov. Shu munosabat bilan Rossiya qo‘lyozma fondlarida mavjud bo‘lgan Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining bir qismini keltiradi va reyestrni tuzishda S.L.Volin (1909–1943) va Ilya Zaysevlarning Alisher Navoiy qo‘lyozma asarlariga oid kataloglaridagi fikrlaridan ham foydalanilganligini aytib o‘tadi [Волин, 1946; Рукописи Навои – Москва, 2021; Рукописи Навои – Казань, 2021].

Shuningdek, Ogoh Sirri Levendning 1958-yilda “Türkiye kitaphıklarındaki Nevâyî yazmaları”¹⁵ mavzusida bir katalog nashr qilganligini ham qayd etib o‘tish lozim. Ammo bu katalog Alisher Navoiy asarlarining Turkiya Respublikasi kutubxonalarida saqlanayotgan 90 dan ortiq qo‘lyozma nusxasi, 1958-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarga tayangan holda tayyorlangan.

Turkiya Respublikasida Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi borasida chuqur tadqiqotlar olib borgan prof.Vohit Turk “Türk Dünyası Dil ve Edebiyat” jurnalida nashr qilingan “Türkiye’de Ali Şir Nevai Çalışmaları” mavzusidagi maqolasida Turkiyada Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq olib borilgan tadqiqotlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Magistrlik ishlari - 26 ta
2. Doktorlik dissertatsiyalari - 18 ta
3. Maqolalar - 281 ta
4. Ensiklopediya bo‘limlari- 11 ta
5. Turkiy tillardan olingan maqolalar- 19 ta
6. Tarjima maqolalar- 23 ta
7. Tezislar -48 ta
8. Kitoblar- 51 ta
9. Tabdil kitoblar – 51 ta
10. Tarjima kitoblar- 2 ta¹⁶

XV asr oxiri XVI asr boshlaridan buyon Alisher Navoiy hayoti, ijodi va adabiy merosi masalasi faqatgina turkiy xalqlar olimlari tomonidagina emas, balki dunyo xalqlari tadqiqotchilarining ham e’tiborini jalb qilib kelmoqda.

Jahon adabiyotida Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqish nihoyatda kattadir. Xususan tadqiqotlar Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining Evropa

¹⁵ Levend, Agah Sirri. Türkiye kitaphıklarındaki Nevai yazmaları. – Ankara: Türk Tarih Kurum, 1958. – 209 s.

¹⁶ Türk, V. (2021). Türkiye’de Ali Şir Nevai Çalışmaları. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*. 52, 403-442.

kutubxonalarida saqlanganligini va shuningdek, asrlar davomida turli g‘arb o‘lkalariga nusxalari tarqalganligini ko‘rsatadi.

Masalan, Turkologik tadqiqotlarda ahamiyatga ega bo‘lgan Shvetsiyadagi Lund universiteti kutubxonasida chig‘atoy, o‘zbek va uyg‘ur va arab va fors tillarida yozilgan qo‘lyozma asarlardan iborat 560 ga yaqin asarlar to‘plami mavjud bo‘lib, bu asarlar to‘plami ichida mavjud qo‘lyozma asarlarning bir bo‘limi Alisher Navoiyga tegishli ekanligi aytiladi¹⁷.

Yana bir misol, fransuz olimi Mark Toutant Alisher Navoiy “Xamsa” asari yuzasidan Michigan universiteti va Parij kutubxonlaridagi ikki qo‘lyozmasiga tayanib tadqiqotlar olib boradi. Amerika Qo‘shma Shtatlari Michigan universitetidagi Navoiyning “Xamsa” asari qo‘lyozmasi, Hirotda ko‘chirilgan nusxa ekanligi ahamiyatlidir. Mutaxassis olimlar Alisher Navoiy asarlarining dunyoda 3.500 ga qadar qo‘lyozmalari mavjudligi haqida ma‘lumot berishadi. Hazrat Mir Alisher Navoiy adabiy merosini o‘rganish borasida jahon adabiyotshunosligida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar haqida yetarlicha ma‘lumotlarga ega emasmiz.

Hozirgi kunda Sahrof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori I.K.Mirzayev bosh muharrirligida “Alisher Navoiy” xalqaro elektron jurnali 2021-yildan buyon nashr qilib kelinmoqda. Ushbu jurnal, o‘lkamizdagina emas, ayni paytda Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan xorijiy mutaxassislarning ham ilmiy kuzatishlari natijalarini e‘lon qilib bormoqda. Alisher Navoiy adabiy merosini butun dunyo o‘rganishga tashabbus bildirayotgan bir paytda ushbu jurnal ham buyuk mutafakkir shoir ijodi targ‘ibiga munosib hissa qo‘shadi degan umiddamiz.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutafakkir va shoir Mir Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqish o‘z davridayoq boshlangan bo‘lib, nafaqat turkiy dunyo, bugungi kunda evropa olimlari tomonidan ham keng o‘rganilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar, tahlillar, qiyosiy ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyo bo‘ylab tarqab ketgan asarlari qo‘lyozmalari fehrefsti tuzilmoqda. Ko‘plab asarlari dunyo tillariga tarjima qilinmoqda, ularni yosh avlodga yana-da osonroq yetkazish maqsadida izohli lug‘atlar tayyorlanmoqda.

Chunki, buyuk mutafakkir shoir so‘zlaridagi chuqur falsafiy qarashlar, yuksak badiiy g‘oyalar komil inson tarbiyasi va jamiyat taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁷ Unal, Z. (2022). The works of Alisher Navoi in Sweden (Translated from Turkish by Rokhila Ruzmanova). *Alisher Navoi*, vol. 2, issue 3, pp.132-140.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, V. (1941). *Alisher Navoiyning hayoti va Samarqanddagi adabiy faoliyati* (Filologiya fanlari nomz. ...diss). Toshkent.
2. Çetindağ, Y. (2006). *Ali Şir Nevai'nin Osmanlı şiirine etkisi*. Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı.
3. Garbuzova, V.S. (1960). *Türk adabiyoti klassiklari*. Toshkent: O‘znavnashr.
4. Gövsa, İ.A. (1946). “Ali Şir Nevai”, *Türk Meşhurları Ansiklopedisi*. İstanbul, 40-41.
5. Günay, A. (1965). *Ali Şir Nevai. Ali Şir Nevai'nin Birinci Divanı: Garâibü's-Sığar* (Basılmamış Doktora Tezi). İstanbul.
6. İsen, M. (1994). Anadolu Türk Edebî Dili Üzerine Nevai Etkisi. *Uluğ Bey Sempozyumu*. – Çorum, 30 Mayıs-1 Haziran, 294-304.
7. Karaörs, M.M. (1985). *Ali Şir Nevai. Nevâdirü'ş-Şebâb* (Basılmamış Doktora Tezi). İstanbul Üniversitesi. İstanbul.
8. Kayabaşı, B. (1991). *Taşlıcalı Yahya Bey Gülşen-i Envar* (Yüksek Lisans Tezi). İnönü Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
9. Köprülü, M. F. (1934). Ali Şir Nevai Ve Tesirâtı. *Türk Dili ve Edebiyatı Hakkında Araştırmalar*. İstanbul, 257-266.
10. Kut, G. (2003). *‘Ali Şir Nevai, Garâibüs-Sığar. İnceleme-Karşılaştırmalı Metin*. Ankara: Türk Dil Kurumu.
11. Levend, A. S. (1958). *Türkiye kitaplıklarındaki Nevai yazmaları*. Ankara: Türk Tarih Kurumu.
12. Levend, A. S. (1966). *Ali Şir Nevai. Divanlar, II*. Ankara: TTK.
13. Nalbant, B. (2005). *‘Ali Şir Nevai. Nevâdirü'n-Nihâye (İnceleme, Metin, Dizin, Notlar): Doktora Tezi*. Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. Ankara.
14. Navā'ī, ‘A. (2015). *Dīvān of the Aq qoyunlu Admirers (1471)*. A.Erkinov (ed.). Tokyo: Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa.
15. Navoiy, A. (1991). *Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Sakkizinchi tom. Xamsa. Farhod va Shirin*. Toshkent: Fan.
16. Navoiy, A. (2021). *Oqqo ‘yunli muxlislar devoni: tabdil va faksimil matn*. Nashrga tayyorlovchilar A.Erkinov, R.Jabborov. Toshkent: Donishmand ziyosi.
17. Ruzmanova, R.U. (2010). Ali Şir Nevai ve Seydi Ali Reis Kâtibî. *Kardeş Kalemler*, 4(41), 75-78.
18. Ruzmanova, R. (2021). Alisher Navoiy g‘azallari ta’sirida yozilgan 33 nazira. *Alisher Navoiy Xalqaro jurnal*, (1), 205-210.
19. Sultanov, T.I. (2021). Alisher Navoi Century and Prose in Almaz Ulviy Research. *International Journal of Alisher Navoi*, 1(2), 166-171.
20. Sultanov, T.I. (2018). Ali Şir Nevai Şiirinin Sadık Bey Sadikî Sanatına Etkisi. *Dil ve edebiyat araştırmaları Uluslararası dergisi*, 18, 277-285.
21. Unal, Z. (2022). The works of Alisher Navoi in Sweden (Translated from Turkish by Rokhila Ruzmanova). *Alisher Navoi*, vol. 2, issue 3, pp.132-140.
22. Sedettin, N. E. (1936). *Türk Şairleri. Cilt I*. İstanbul: Suhulet Basımevi.
23. Toprak, F. (2021). *Tasavvufî ve Edebi Yönleriyle Ali Şir Nevai*. Ankara: Akçağ yayınları.

24. Türk, V. (2021). Türkiye'de Ali Şir Nevai Çalışmaları. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*. 52, 403-442.
25. Türkay, K. (1988). *Ali Şîr Nevai: Bedâyi'ul-Vasat. İnceleme – Metin – Dizin* (Basılmamış Doktora Tezi). Ankara Üniversitesi. Ankara.
26. Yuldasheva, G. (2023). G‘arb olimasining Markaziy Osiyo tarixi va Alisher Navoiy ijodiga qarashlari. *Alisher Navoiy xalqaro jurnali*, 1.